

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASI O'QUVCHILARINING MA'NAVIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

**Hatamova Ma'rifat Yorqin qizi,**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarining ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishning innovatsion usullari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, qadriyat, innovatsion usullar, ma'naviy tarbiya, ma'naviy barkamollik, odob, ijtimoiy me'yorlar.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются инновационные методы формирования духовных ценностей учащихся общеобразовательного среднего учебного заведения в процессе обучения.

**Ключевые слова:** инновация, ценность, инновационные методы, духовное воспитание, духовное совершенство, этикет, социальные нормы.

**Abstract.** This article discusses innovative methods of forming spiritual values of students of a general secondary educational institution in the educational process.

**Keywords:** innovation, value, innovative methods, spiritual education, spiritual perfection, etiquette, social norms.

**Kirish.** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish masalasi bugungi ta'lim siyosati va pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi, axloqiy tanlovi, fuqarolik pozitsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati hamda hayotiy maqsadlarining shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviy qadriyatlar, bir tomondan, jamiyatning tarixiy-madaniy tajribasini avloddan avlodga uzatuvchi me'yorlar va ideallar tizimi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, shaxsning ichki motivatsion sohasi, e'tiqodi, mas'uliyati va o'zini anglash mexanizmlariga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik hodisa hisoblanadi [3.41].

Shu bois ma'naviy tarbiya jarayonini faqatgina ma'ruza, nasihat, tadbirlar majmuasi sifatida emas, balki kompetensiyaviy yondashuvga tayangan holda, o'quvchi faoliyatida qadriyatlarni amaliy tajriba sifatida o'rgatadigan, amaliyot orqali ongli o'zlashtirilishini ta'minlaydigan, ijtimoiy hamkorlik va muloqotga tayanadigan didaktik tizim sifatida qurish talab etiladi. Mazkur talablarga javob beruvchi yo'nalish sifatida innovatsion usullar va pedagogik texnologiyalar asosida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, ayniqsa, raqamli transformatsiya, media muhitning kuchayishi, o'quvchi avlodning kommunikativ odatlari o'zgarishi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish masalasi pedagogika fanida yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilgan. Xususan, Q.Yo'ldoshev ma'naviy tarbiya jarayonining nazariy asoslarini ochib berib, unda qadriyatlarning shaxs kamolotidagi o'rnini asoslab beradi. A.Muslimov esa pedagogik texnologiyalar orqali ta'lim

samaradorligini oshirish, innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarda ham yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu yo'nalishda innovatsion metodlardan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy o'rganish hamda pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar amaliy jihatdan tahlil qilinib, ularning ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi samaradorligi baholandi.

**Tahlillar va natijalar.** Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda "innovatsion usul" tushunchasi faqat texnologiyalardan foydalanish yangiligi bilan cheklanmaydi; u didaktik dizayn, ta'lim muhitini loyihalash, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi, baholash va amaliyot mexanizmlarini qayta tashkil etish, shuningdek, tarbiyaviy ishlarning mazmuni va shakllarini o'quvchi ehtiyojlari hamda real ijtimoiy vaziyatlar bilan uyg'unlashtirishni anglatadi [4.256]. Bunda pedagogik innovatsiyaning asosiy maqsadi natijaga yo'naltirilgan bo'lib, ma'naviy qadriyatlar bilim, ijtimoiy munosabatlar va xulq-atvor komponentlarining uyg'un rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning samaradorligi ko'pincha amaliyotda qanday tashkil etilishi lozim degan g'oyaga bog'liq bo'lib, o'quvchining faol ishtirokini rag'batlantiruvchi, muammoli vaziyatlar orqali mustaqil fikrlashga undovchi, hamkorlikda qaror qabul qilishni yo'lga qo'yuvchi ta'lim texnologiyalardan foydalanish lozimligini nazarda tutadi.

Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning innovatsion usullari orasida loyihaviy ta'lim alohidaligi bilan ajralib turadi, chunki u o'quvchini real ijtimoiy muammolarga yo'naltiradi va olgan bilimlarni amaliyotda qo'llash orqali qadriyatlarni amaliy tajribaga aylantiradi. Loyiha jarayonida o'quvchilar jamoaviy mas'uliyat, hamkorlik, murosa, liderlik, vaqtni boshqarish, jamoaga foyda keltirish kabi qadriyatlarni bevosita tajribadan o'tkazadilar, natija esa o'z mehnati va ijtimoiy ta'sirini ko'rish orqali mustahkamlanadi. Loyiha mavzulari maktab muhitida sog'lom ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash, ekologik mas'uliyat, kitobxonlikni targ'ib qilish, atrofdagilarga o'zaro hurmat madaniyatini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda tanlansa, ma'naviy tarbiya mazmuni o'quvchi hayotiga yaqinlashadi. Bu yerda mas'ul o'qituvchi rahbar obrazidan ko'ra hamkorlik obraziga yaqinlashadi. O'qituvchi muammoni aniqlashtirish, manba izlash, dalillarni tekshirish, bahsni to'g'ri olib borish, xulosaga kelish va taqdimot qilish jarayonlarida o'quvchilar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi va o'quvchini amaliyotga yo'naltiradi.

Ma'naviy qadriyatlarni innovatsion shakllantirishda xizmat orqali o'qitish yondashuvi ham istiqbolli bo'lib, u ta'lim mazmunini ijtimoiy foydali xizmat bilan integratsiya qiladi. Bu yondashuvda o'quvchi ma'lum bir fan doirasida olgan bilimni (masalan, ona tili, informatika, biologiya, tarix) real ijtimoiy ehtiyojni qondirishga yo'naltiradi, keksa va ehtiyojmandlarga ko'mak, ekologik ko'mak, maktab va mahalla

kutubxonasini boyitish, raqamli savodxonlik bo'yicha kichik treninglar, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanish orqali ham tarbiyaviy munosabatlar, shuningdek iqtisodiy munosabatlarni tam to'g'ri o'rgatishda ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy tarbiya innovatsiyalarini joriy etishda kompetensiyaviy standartlar va milliy ta'lim islohotlari bilan birgalikda olib borish ham alohida e'tiborni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq avlodni tarbiyalash g'oyalari mustahkamlangan bo'lib, bu normativ asos maktabning tarbiyaviy vazifalarini metodik jihatdan yangilashga yo'l ochadi. Shu bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy ishlarining yo'nalishlarini belgilovchi hujjatlarda ham yoshlarning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ijtimoiy faolligini oshirish, kitobxonlik va madaniyatni rivojlantirish kabi vazifalar ko'rsatib o'tiladi.

Demak, innovatsion usullarni amaliyotga tatbiq etishda ular normativ-huquqiy talablar, maktabning tarbiyaviy rejasi, sinf rahbari faoliyati va fan o'qituvchilari ta'limiy maqsadlari bilan integratsiya qilinishi lozim. Integratsiyaning eng samarali yo'li – tarbiyaviy maqsadlarni fan dasturlaridagi mavzular bilan bog'lash, faqatgina tarbiya soatlarida emas, balki boshqa fan darslarning tarkibiga qadriyatlar tizimini integratsiya qilishdir.

Ma'naviy qadriyatlar shakllanishining innovatsion usullaridan biri sifatida media savodxonlik va axborot madaniyatini tarbiyalash alohida strategik ahamiyatga ega. Aynan bugungi kunda o'quvchi ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar, messenjerlar, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kontentlar bilan doimiy muloqotda bo'lgan sharoitda qadriyatlar "matn" orqali emas, "algoritm" va "trend" orqali ham axborotni qabul qilmoqda. Albatta bu holatda axborotlarni to'g'ri tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Shuning uchun maktabda axborotning ishonchliligini tekshirish, manbani baholash, manipulyativ usullarni aniqlash, kiberbullingga qarshi turish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, mualliflik huquqiga hurmat kabi ko'nikmalar ma'naviy tarbiyaning tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Umuman olganda innovatsion metodlarni tanlashda o'quvchi yosh xususiyatlari, xulq atvori, sinf jamoasining ijtimoiy-psixologik holati, maktabning resurslari va mahalla hamkorligi darajasi e'tiborga olinishi shart.

Innovatsion usullarni amaliyotga joriy etishda yana bir muhim o'rinda turuvchi masala bor. Bu o'qituvchilarni tayyorlash va ularning metodik madaniyatini oshirish masalasi. Ushbu jarajonni tashkil etish ham asosiy o'rinda turadi. Chunki yangi texnologiya yoki metodni shunchaki qo'llash kutilgan natijani bermaydi. Ammo mahoratli pedagog tomonidan tashkil etilgan dars jarayoni pedagogik maqsad, sinf konteksti va o'quvchi ehtiyojlari bilan moslashtirilgandagina samarali bo'ladi. Shuning uchun maktabda metod birlashmalar ochiq darslar, mentorlik, amaliy seminarlar, dars kuzatuvlari

va mashg'ulotlar orqali o'qituvchining innovatsion kompetensiyasi rivojlantirilishi lozim. Shuningdek milliy sharoitdan va jamiyatimizdagi ijtimoiy qarashlardan kelib chiqqan holda har bir foydalanilayotgan innovatsion texnologiyalar o'zbek pedagogik an'anasi va ma'naviy tarbiya tajribasi nuqtayi nazaridan, innovatsion usullar milliy qadriyatlar, tarixiy meros va zamonaviy talablarga tayangan holda uyg'unlashtirilishi zarur.

Shu bilan birga, milliy ta'lim siyosatida belgilangan vazifalar innovatsion metodlar orqali o'quvchining kundalik xulq-atvorida ko'rinadigan kompetensiyalarga aylantirilsa, ma'naviy tarbiya faqat so'zlarda yoki hujjatlarda emas, amaliy natijadorlikka o'tadi. Shu o'rinda misol keltirib o'taman, masalan, "vatanparvarlik" g'oyasi asosidagi mavzuni faqat bayram tadbirlari bilan cheklamasdan, "mahallam tarixi" raqamli xaritasi, "maktab muzeyi" uchun eksponat va hikoyalar to'plash, urush va mehnat faxriylari bilan intervyu, tarixiy obidalarni saqlash bo'yicha ijtimoiy aksiya kabi loyiha va xizmat faoliyatlari bilan bog'lash mumkin. Ya'ni faqatgina oddiy mavzu asosida mashg'ulot tashkillashtirish emas, balki har bir dars jarayonida yoki qo'shimcha maktab dasturlari, loyihalari tarkibida singdirib o'tish mumkin. Shundagina faqat ayrim sanalarda, yoki majburiy tadbirlarda emas, balki o'quvchida ko'nikma hosil bo'ladi va bu kundalik faoliyatga aylanadi.

**Xulosa.** Yuqoridagi yondashuvlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarining ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishning innovatsion usullari pedagogik jarayonni faoliyatga yo'naltirish, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, raqamli muhitda mas'uliyatli xulq-atvorni tarbiyalash, psixologik xavfsiz muhit yaratish va baholashni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida qo'llash tamoyillariga tayanganda samarali bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent. 2020.
2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi PQ-50-40.
3. Q.Yo'ldoshev. Tarbiya nazariyasi. – Toshkent. O'qituvchi, 2009.
4. A.Muslimov. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, Fan va texnologiya, 2015.